

**"ISHAROTUL-MAROM" ASARIDA KELGAN ALLOHNING "ARSH"GA  
ISTIVO QILSIH (egallah) MAVZUSINING QIYOSIY TAHLILI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7452962>

**Saidmuhammadxon Muhibullaev**



**ELSEVIER**



O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik va islom tsivilizatsiyasini

O'rganish ICESCO kafedrasini 1-bosqich

tayanch doktoranti

*muhibullayevs@mail.com*



**Abstract:** Bu mavzuda Kamoliddin Bayoziyning "isharotul-marom" asaridagi "vasiya" asarida kelgan "Allohning arshga istivo" masalasini yoritishdagi uslubini Akmaliddin Bobartiyning "Sharhi vasiya Imam Abi Hanifa" risolasi bilan qiyosiy tahlil qilsih, undagi masalani bayon qilsihda asosan qaysi uslubda bayon qilgani, Bayoziy nima uchun o'zining qarashini deyrali keltirmagan, Bobartiy esa buning aksi ekani, u asosan aqliy dalildan istifoda etgani, Bayoziy esa ko'pincha ash'ariy olimlari qarashini keltirgani, Abu Hanifaning "arsh" masalsidagi so'zida bir necha adashgan toifalariga raddiya borligiga ishora qilishi kabilar aks etadi.

**Keywords:** Akmaliddin Bobartiy, "Allohning arshi", ta'vil qilsih, istivo, mutashobih oyatlar, Allohning yadi (qo'lli), vajhi, ayni (ko'zi), qaror topish, olamning hodisligi, Allohning qadimligi..

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

**Received:** 17-12-2022

**Accepted:** 18-12-2022

**Published:** 22-12-2022

## KIRISH

Istiqlol sharofati bilan serquyosh yurtimizda diniy va milliy qadriyatlarimiz qayta tiklandi. Diyorumiz musulmonlarining asriy orzu-umidlari ro'yobga chiga boshladi (va chiqmoqda). Asosiy qonunimizda etiqod erkinligi kafolatlandi. "Vijdon erkinligi to'g'risida"gi Qonunda e'tqod qiluvchilarining haq va huquqlari belgilab berildi. Diniy tashkilotlar fuqororlik jamiyatining ajralmas tarkibiy qismi ekanligi e'trof etildi. (Islom va aqidaparast oqimlar 2016:3).

O'z milliy tarixi va madaniyatiga, dunyoda eng katta boylik bo'lgan intellektual va ma'naviy salohiyatga chuqur hurmat bilan yondashish, uni asrab-avaylash va boyitish, shu asosda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jahondagi har bir davlat va jamiyatning moddiy va ma'naviy taraqqiyotida, hech shubhasiz, hal qiluvchi o'rinn egallaydi. (Hasanbaev O', Xatamov J 2020: 142,43)

Ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fan va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebafo merosini o'rghanish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashnig muhim shartlaridan biri hisoblanadi. (Hasanbaev O', Xatamov J 2020:154).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, dolzarb va muhim bo'lgan aqidaviy masala Alloh naoloning makonga muhtoj emasligi mavzusini Hanafiya va Moturidiya

ta'limoti asosida yortishni oldimizga maqsad qilib oldikki, makonga nisbat beruvchilarga raddiya berish va haq qaysi tarafda ekanligini oyat va hadislar asosida yoritib berish, Abu Hanifa (r.a)ning asari asosida isbotlashdir. Islom yurtlarida mo'min-musulmonlarni chalg'itib, oyat va hadislarni zohiriga qarab xulosa qiluvchilar ibrat olsinlar va Allohning zotiga munosib sifatlarni aytsinlar.

Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, sahobai kiromlar davrida Alloh taoloning sifatlari Qur'on va sunnatda kelganidan ortiqcha bahs qilinmaganiga guvoh bo'lamiz.

Ammo keyinchalik paydo bo'lgan karromiya(asoschisi - Muhammad ibn Karrom), mushabbiba (Allohni sifatlarini maxluqlarning sifatiga o'xshatuvchilar) va najjoriya (asoschisi - Husayn ibn Muhammad) kabi firqalar Alloh taoloning sifatlari haqida turli noto'g'ri da'volarni ko'tarib chiqshgan. Ularning shunday da'volaridan biri Alloh taologa makon nisbatini berish bo'lgan. Ana shundan keyin Alloh taoloning makonlardan xoli ekani haqida bahslarga chuqur kirishishga ehtiyoj tug'ilgan. Mazkur firqalarning da'voyu fitnalariga Ahli sunna va jamoa ulamolari Qur'on va sunnat asosida keskin raddiyalar bergenlar. [E'tiqod durdonalari 2016:115].

Shu e'tibordan arsh va unga doir masalalarni o'rganishda aqlga emas, naqlga suyanib tushunish va shu asosda o'rganish muhim sanaladi. Aqliy dalillarni naqliy dalilni quvvatlash uchungina keltirish zarur.

### **ASOSIY QISM**

Mavzuni yoritishda mo'tabar manbalardan sanalgan Akmaliddin Bobartiy(714/1314-786/1384)ning [Bobartiy 2009:13-21] Abu Hanifa (r.a)ga tegishli "vasiya" asariga yozgan sharhi va Kamoliddin Bayoziy(1044/1634-1098/1687) ning "isharatul-marom min ibarotu Imam Abu Hanifa" (Abu Hanifaning iboralaridan iroda qilingan ishoralar) asaridan to'g'ridan-to'g'ri foydalanildi.

Albatta, har bir shorih va olim bir-biridan farqli ravishda o'zi sharhlayotgan asarni o'z ilmi va zamoni, muhitga qarab sharhlaganligi sababli, biz ikki mo'tabar asarni mavzuni qay tarzda va qanday uslubda sharhlagani hamda bayon qilganini qiyosiy tahlil qilish orqali organib chiqishni maqsad qilganmiz.

Qiyosiy tahlil uchun "Isharatul-marom" asaridagi Imom Abu Hanifaning "Vasiya" asarida kelgan "Allohning arshi" masalasi tanladik. Chunki, bu mavzu yuqorida aytib o'tganimizdek doim bahs qilinib kelingan.

"Vasiya" asariga uncha ko'p sharh yozilmagan bo'lsada, yozilganlarining o'zi kifoya qilgudek hisoblanadi. Biz shular ichidan mo'tabar asarlardan bo'lgan, mashhur hanafiy va moturidiy olimi Akamaliddin Bobartiyning qisqacha yozgan sharhini tanlab oldik. Zero, Bobartiy mo'tabar va ko'p sharhlar sohibidir.

Bayoziy "Isharatul-marom"da Imom Abu Hanifaning "Vasiya" asaridagi quyidagi matnni keltiradi: "**Alloh arshga unga hojati tushmay va unga qaror topmay istivo qildi**".

Sharh: Bu salaf-solihlar mazhabi bo'lib, Imom Molik va Imom Ahmadlar istivo ma'lum, qandayligi noma'lum, u haqda savol berish esa bid'atdir, deb sarohatan aytishgan.

### **Bayoziy aytganidek matn quyidagilarga ishora qiladi:**

1) Ijmoliy ta'vil qilsih, ya'ni bu iboralarni qat'iy hujjatlarga zid kelgani uchun o'zining jismoniy a'zolari, birlashish, insoniy refleks kabi ma'nolarga yuyish mumkin bo'lmaydi. Shu bilan birga hech qanday kayfiyatsiz sifatning haqiqatini idrok eta olmagani tufayli, u sifatni boutilga chiqarish ham joiz emasligi sababli, bu matnning ma'nosini majozga yuyiladi, oyat va mashhur hadislarda kelgan narsa (murodi Allohga topshiriladi) e'tiqod qilinadi. Tafsilotlatlarini bilmagach, zohirini keltirib chiqaradigan, insonga xos sifatlardan Allohnin poklanadi.

Ahli sunna imomlari aytadilariki, yad (qo'l), barmoq, istivo va boshqa shunga o'xhashlar Alloh taoloning sifatlaridir. Bular jism va a'zo hamda qaror topish ma'nosida emas, balki O'z Zotiga munosib ko'rinishda bo'lib, uni Allohnинг O'zi biluvchiroq. "Al-abkar (abkarul-afkaar fi usul ad-din)" [Bu asar muallifi Sayfiddin Omidiy (551/1156-631/1233) avval hanbaliy so'ngra shofe'iy mazhabiga o'tgan bo'lib, ash'ariy aqidasida bo'lган] va boshqa asarlarda ham shunday kelgan. "Al-mavoqif"da [Izzuddin Iyjiy Shofe'iy, ash'ariy(680-756)ga tegishli kalom ilmiga oid asar bo'lib, ash'ariy aqidasi bo'yicha yozilgan] kelishicha Imom Ash'ariydan ham vajh, yad, ayn va istivo borasida bir rivoyatdir.

"Kashf al-Kashhof"da [Bu asar Sirojiddin Umar Qazviniy Forisiy(vaf. 745)ga tegishli Zamaxshariyning Kashshofiga sharh] Alloh taoloning: "**Boshqasi** (oyatlar) **mutashobihlar**", [Tafsiri Hilol 2018:Oli Imron 7] degan oyati karimasi tafsirida ular sam'iy sifatlardan bo'lган istivo, yad, qadimlik, dunyo osmoniga tushishi, kulish, taajjublanish va shunga o'xhashlardan iborat, aqldan tashqaridagi sobit sifatlardir. Ya'ni, ular faqat Alloh tarafidan kelgan, ularni biror banda qo'ygan emas va ularni aqli ham etmaydi. Bu qarashlar salafi solihlarning qarashi bo'lib, ular ichida Abulhasan Ash'ariy ham bordir. Biz faqat ularni sobitligiga e'tiqod qilishga taklif qilinganmiz, ularni tashbih va jism berishga emas. Tashbih va jism berishda naqla va aqlga zidlik bor. Xalaf ulamolarning ko'pchiligi nazdida sam'iy sifatlar sakkiztadan oshmaydi. Ism va (sakkiztadan) boshqa sifatlarning barchasi shu (sakkista) sifatlarga bog'liq sanaladi. Oyatdagagi "mutashobihlar" salaf solih ulamolar nazdida sifatlarga yuyiladi, ul sifatlar majozga ta'vil qilinib, qat'iy (mana shu) deb ta'yin qilinmaydi, uni ta'yinlashni Allohga topshiriladi. Imom Roziy(1149-1209) va Nizom (Nizomuddin) [Viaf.org] Naysaburiy(vaf. 850/1328)lar yuqoridagi oyat tafsirida aniq ravishda shu ma'nolarni aytganlar.

"Tafsiru-kabir"da [Bu asar 32 jildlik bo'lib, Faxriddin Roziyga tegishli] Alloh taoloning "**Aksincha, Allohnинг ikki qo'li ochiq**", [Tafsiri Hilol 2018:Moida 64] oyati karimasi tafsirida shunday deganlar, Abulhasan Ash'ariy (260/874-324/936) ba'zi so'zlarida albatta, yad (qo'l) Allohnинг Zotida qoim bo'lган sifati bo'lib,

muxtor so'zga ko'ra takvin (bor qilsih, yaratish) ishidan bo'lgan Qudrat sifatidan boshqa sifatdir, deganlar. [Tafsirul-kabir 1981:12-j,46] Boshqa bir rivoyatda "yad"ni ne'mat deb tafsir qilganlar. Buning (ne'matni) ma'nosni mukammal darajada saxovatli, kimga biror narsa in'om qilsa, yuksak darajada ato qilgan bo'ladi.

Qozi Boqiloniy (338/950-403/1013) [Abu Bakr Boqiloniy faqih, usulchi, mutakallim, Molikiy mazhabi va ash'ariy aqidasidagi olimlardandir. "Sunnat shayxi", "Ummat tili" kabi unvonlar sohibi. To'rtinchi yuz yillik mujaddidi ham hisoblanadi] (Allohning) yadi haqida va Ustoz Abu Is'hoq (338/949-418/1027) [Abu Is'hoq Isfiroyiniy shofe'iy faqihlaridan, mutakallim olim, muhaddsi, mufassir. Eronning Isfiroyin shahrida tavallud topgan va shu yerga dafn qilingan] esa (Uning) vajhi borasida tafviz (Allohga topshirish)ni ixtiyor qilishgan. Bu Allah taoloning "**Uning (mutoshobih oyatlarni) ta'vilini Allohdan boshqa hech kim bilmas. Ilmda sobit bo'lganlar esa: Unga iymon keltirdik, barchasi Robbimiz huzuridandir, derlar**", deb marhamat qilgan oyatiga ko'radir.

2) Ikkinci ishora shuki, (mutashobih oyatlar) ularni ta'vil qilishda batatsil kirishib, chegaradan chiqib ketgan ta'vil qiluvchi, ba'zi ash'ariy va mo'tazilalarga raddiya bor. Ular bu oyatlar zohiriy ma'nosidan tashqarida, deganlar. Imom Ash'ariydan ham bir rivoyatda shunday kelgan. Unga (Ash'ariy) o'zlarining ushbu so'zları orqali ishora qilganlar: Uning (Allohning) kayfiyatsiz sifatlaridan, va yana ushbu so'zlarida: Uning g'azabi bu uqubati, roziligi esa savobi, deyilmaydi, deganlar. Ular shuni ushlaganlarki, sifatlarni haqiqiy ma'nosiga ishlatish mumkin bo'lmaydi, chunki naqlni uning zohiriga ehtimol bo'lib turganda, ta'vil joiz bo'limgani va qat'iy dalillar man qilgani uchun, deganlar. Shu bilan birga majhul shaklda boshqa sifatlariga ham ta'yin qilib bo'lmaydi, chunki bu ish muxotobga (bandaga) taalluqli ish emas, bunday qilishda maqsad qilingan narsa yo'qoladi, shuning uchun majozga ishlatish va ta'vil qilish kerak bo'ladi va aqlga sig'adiagan hamda dalil bilan sobit bo'lgan majozlarga ham haml qilinadi. Bunday qarashlar "al-abkar" va "al-mavoqif"da "Sifatlar haqidagi sakkizinch bo'lim"da keladi. Unda aytishicha, yad va yamin (Allohning yamini) qudratdan majoz, vajhi vujuddan majoz, ayn basardan majoz, istivo esa istelodan (hukmronlik qilish) majoz va boshqalariga shunday majozan aytildi, deyilgan.

Oyatdagagi ikki yaddan murod mukammal qudrat, odamni shu bilan xoslash (ya'ni Allah taolo odamni ikki yadim ila yaratdim, degan so'ziga ishora) unga ikrom ko'rsatish, ko'zni jarayoni esa odamni tanlab olish va uni saqlash ila to'liq makonni qamrovi, nuzul (tushish)dan maqsad Allahning yaxshiligi va in'omi, maji' (kelish)dan murod Uning hukmi va qazoi qadari, kulish esa Uning afusi va rozi bo'lishidir, deganlar.

Sifatlarni majozan deyishlari Allahga jism berish va (maxluqlarga) tashbih o'xshatishni darhol unda nafiy qilish uchundir. Agar unday qilinmasa, aqliy

ma'nolarga tasavvurotlar va tamsilotlar (o'xshashlar) hissiy suratlarga o'xshatish kelib chiqadi.

Moturidiy va Ash'ariylarning ba'zilari sifatlarni tafsilotiga yurganlar. Ular agar ta'vil qilingan ma'no arab xitobiga yaqin tushuncha bo'lsa, ta'vil qilish mumkin, deganlar. (Ya'ni o'z ma'nosidan uzoqkashib ketmasa) Buni Imom Ibn Abdussalom [Izz ibn Abdussalom Sofe'iy, ash'ariy olimlaridan. Damashqda tavallud topib, Qohirada salbchilar va tatarlar bilan bo'lган jangda vafot etgan] (577/1181-660/1262) [Shazarotuz-zahab 7-j, 523] va Imom Taqiyuddin ibn Daqiqul'iyd [Abulfath Taqiyuddin, ibn Daqiqul'iyd nomi bilna mashhur bo'lган. Shofe'iy olimlaridan] (626/1228-702/1302)lar [Id.worldcat.org/fast/16. 2. Libris.kb.se/auth/1912] ham ixtiyor qilishgan.

"Al-kifoya" va "at-tasdid" [Abu Abdulloh Muhammad ibn Yusuf Tilmsoniy, Sanusiy (830/1426-895/1490)ga tegishli aqidaviy risolalar. Olim molikiy va ash'ariy bo'lган] sohibi hamda Imom Ibn Humom [Muhammad ibn Abdulvohid ibn Abdulhamid ibn Mas'ud Siyvasiy Kamoliddin. Ibn Humom nomi bilan mashhur. Hanafiy moturidiy olimlardan. Iskandariyada tavallud topib, Qohirada vafot etgan] (790/1388-861/1457)lar avomni fahmiga noto'g'ri bo'lib qolib, ta'vilga ehtiyoj bo'lsagina ta'vil qilish kerak, degan fikrni ilgari surganlar. Lekin Allohnning irodasi xossatan as'hoblarimizning so'ziga ko'ra mutoshobihlardan, deb qat'iy ravishda aytilmaydi. Mutashobihning bu dunyodagi hukmi undan maqsad nima ekanini bilish umidi uzilganlikdir. (Ya'ni banda ojiz, uni Allohnning o'zi biladi, bandaga muhimi Allohn ni Uning Zotiga mos kelmaydigan sifatlarni nisbat berishdan saqlanishdir).

(Abu Hanifaning bu so'zida) Alloh taoloni maxluqotlarga o'xshatuvchi mushabbiha toifalariga raddiya ham bor. Bunga "**kayfiyat va tashbihsiz**" deyish bilan ishora qilganlar. Hashaviy (bu so'z muayyan kishiga dalolat qilmaydi. Birinchi bo'lib bu so'zni tilga olgan kishi Amr ibn Ubayd. U Abdulloh ibn Umar (bu mashhur sahobiyidan boshqa) Hashviy bo'lган. Hashviylar ko'pdan-ko'p hadis rivoyat qilgan bo'lib, hadislар mazmunini tushunmaydilar va eng yomoni tushunishni istamaydilar) va karromiylar Allohga jismiy a'zolarni, sig'im, ko'chish va nafsiy his-tuyg'ularni isbot qiladilar. Alloh taolo shurlardan bir suratda yoki bir yosh egit ko'rinishida bo'lib, u Arshni tepasida unga yo'liqib turish yoki undan ajraganlik bilan xoslangan, deyishadi va ularning o'zi ham shu qarashlarini tafsilotida turli fikrlarga egalar.

Muhammad ibn Karrom (190/806-255/869) aytadi: Alloh taoloni bir tarafda bo'lishi, huddi usha tarafagini jismlarni bo'lishidir. Jismga bu erda yoki anavi erda, deb ishora qilinadi, Allohga ham shunday qilinadi. Alloh Arshdan iborat oly o'rinda o'rnashgan. Unga harakat, ko'chish va taraflarini almashib turishi mumkin.

Karromiylardan Muhammad ibn Haysom aytadi: Allohn tarafda bo'lishi, usha tarafda bo'lган jismlar kabi emas. Bunga quyidagilar dalil bo'ladi:

• Zaruratan aql jazm bilan aytadiki, har bir mavjud narsa biror tarafni qamrovchi va usha joyga o'rnashuvchi bo'ladi. Demak, u bir taraf va makonga xoh mustaqil tarzda bo'lsin yoki ergashuvchi holda bo'lsin bir joyga xoslangan bo'ladi.

• Ikki mavjudning har biri (bir joyga) muttasil yoki munfasil (ajragan, alohida) bo'ladi. Bo'lishi vojib bo'lgan (Alloh) taolo agar olamga muttasil bo'lsa, bir tarafni egallagan bo'ladi. Agar undan ajragan bo'lsa ham shunday bo'ladi, ya'ni bir jihat, tarafda bo'ladi. "Mavaqif" da ham bu haqda bahs kelgan.

• Albatta, Allah taolo shu olam ichida yoki uning tashqarisida yoki uning ichida ham emas, uning tashqarisida ham bo'lmaydi.

Bu uchinchi qarash oddiy aqlning taqazosidan ham tashqaridagi narsa bo'lsa, qolgan ikkita qarash esa matlub talab qilingan qarash bo'lib, U (Allah) bir taraf va jihatdadir.

• Mavjud zot o'zi qoim bo'lувчи va boshqaning yordami ila qoim bo'lувчига bo'linadi. O'zi qoim bo'lувчиси mustaqil bir tarafda bo'lsa, boshqa ila qoim bo'lувчиси esa tobe holatda bir tarafda bo'ladi. Vojib taolo O'z Zotida qoim, demak U O'zi mustaqil tarzda bir tarafda bo'ladi.

• Oyat va hadislarda bu haqda kelgan. Allah taolo: "**U-Rahmon arshni egalladi**", [Tafsiri Hilol 2018:Toha 5] degan. Boshqa bir surada esa: "Ular (adashganlar) **Allah va farishtalar soyali bulutlarda kelishi..**", [Tafsiri Hilol 2018:Baqara 210] (bu oyatdagi "kelish", so'ziga ishora qilmoqda) degan. Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning bir joriyaga (xizmatkor ayol): "**Allah qaerda?**, dedilar. (Joriya) osmonga ishora qildi. U zot (uning so'zini) tasdiqlab, "**bu ayol mo'minadir**", dedilar, degan so'zları. (Ushbu keltirilgan oyat va hadislар ham qat'iy hujjat bo'lувчи emas, bu haqda yuqorida aytib o'tildi).

Savol berish va uning javobni tasdiqlash (Allohni) bir tarafda va bir makonda ekanligiga dalolat qiladi. Butun ummat duoda qo'lini osmonga ko'tarishga odatlanganlar. Agar ularning etiqodida Allohni osmonda ekan bo'limganda edi, bunday qilmagan bo'lardilar. [Bayoziy.Isharotul-marom 2007:156-57-58-59].

Biz yuqoridagi bahslarda ko'rdikki, Bayoziy masalani yoritishda biror joyda Imom Moturidiyni alohida keltirmadi, bunda shu ko'rindiki, Imom Moturidiy Abu Hanifa bilan bir fikrda bo'lgan. Bayoziy ham o'z fikrini keltirmadiki, u ham Abu Hanifa va Imom Moturdiylar tarafida bo'lgan. Shuning uchun maslani yortishda asosan Ash'ariy olimlar fikrini keltirib o'tdi. Ayrim joylarda moturidiylardan ba'zilarining qarashini keltirib ham o'tdi, u ham bo'lsa, Bayoziyning fikridan boshqacha bo'lgani edi.

Shu joyga kelganda " Arshga Istivo qilish" masalasida Bobartiyning "sharhi vasiya" asarida kelgan bahslarni keltirib, Bayoziyning masalani yoritish uslubiga qiyoslanadi.

Akmaliddin Bobartiy aytadilar: **Abu Hanifa: Biz Allah taolo arshga unga hojat bo'lmasdan va qaror topmasdan istivo qilganiga iqror bo'alamiz**, deganlar.

Bobartiy aytadi: bilingki, olam (Allohdan boshqa barcha narsa) paydo qilingandir. Chunki, (olam) o'zgaruvchi va har bir o'zgaruvchi narsa hodisdir (paydo bo'lувчи, avvalda bo'lмаган). Shu o'rinda Boriy taolo va Pok Zotni bir makonga o'rnashishi mahol (bo'lishi mumkin bo'lмаган ish, sog'lom aql tasdiqlamaydigan ish) ish sanaladi. Chunki, U Zotni azalda makondan xoliy ekani sobitdir. Zero, U makon tutuvchi emas. Shu narsa ayon bo'lyaptiki, Allohdan boshqa narsa hodisdir. Agar (U Zot) makonni yaratgach, uni O'ziga makon qilib olsa, azaliy sifatidan o'zgarib qoladi va unga (makonga) tutashish paydo bo'ladi. Vaholanki, o'zgarish va hodis narsalarni o'ziga qabul qilish, keyin paydo bo'lувчиларинг аломатларидан bo'lib, Qadim (avvali yo'q Zot)ga bu narsa mahol ish sanaladi. (Bu kalom ahli sunnaning etiqodini asllaridan bir asldir. Bu "Nimaniki, qadimligi sobit bo'lsa, uni adamligi (yo'q bo'lishi) mahol sanaladi". Hodislik oldin yo'qlik o'tganini va zot yoki sifatlarda yo'qlik yo'liqishini keltirib chiqaradi. Bu esa Alloh taologa mumkin bo'lмаган ishdir) Bu so'zga Abu Hanifa o'z so'zlarida "(Alloh) **аршни yaratishdan oldin Alloh qaerda bo'lган?**", deyish bilan ishora qilganlar.

Bobartiyni uslubini ko'ryapmizki, matnni yoritishda mantiqiy qarash bilan yondashmoqda. Bayoziy esa ishora qilish orqali ham mantiq ham naqliy dalillar va shu bilan birga turli ulamolar hamda firqlar qarashini batafsil keltirib o'tish orqali qisqa matnni batafsilroq yoritgan.

Bobartiy yana so'zini davom ettirib ba'zi firqalarni "**арш**" masalasidagi qarashlarini keltirib o'tadi.

Mushabbiha, mujassima va karromiylar Allohnin O'ziga makon tutgan, degan qarashga yuradilar. O'zlarining so'ziga Alloh taoloning: "**U-Rahmon arshni egalladi**", degan kalomini hujjat qilib yana aytadilarki, Alloh O'zi qoim bo'lувчи mavjuddir, olam ham shunday, ikki o'zi qoim bo'lувчи narsa biri ikkinchisiz bir tarafda bo'lmasligini aql ma'qul sanamaydi. (ya'ni ikkisi ham bir tarafda bo'ladi, demoqchilar).

Ularga javob quyidagicha, yuqoridagi oyat mutashobih oyatlardan sanalib, bunday oyatlar qat'iy bir narsaga dalil bo'lishga yaramaydi. Aqliy dalillar unga xilof (arab tilida "ixtilof" va "xilof" degan so'z keladi. "ixtilof" deganda kalom turlicha, maqsad bitta bo'lган narsaga aytilsa, "xilof" esa kalom ham, maqsad ham turlicha bo'lган narsaga aytildi) keladi. Salaf-solih ulamolarning mutashobihotlar borasidagi yo'llari tasdiqlash va uning ta'vilini Allohga topshirish bo'lган. Chunki, bularni to'liq idrok qilish uzrlidir. Xalaf (hijriy uchinchi asrdan keyingi) ulamolarning yo'li esa isbot qilmaslik chunki, (mutashobih) oyatlar ehtimolli bo'lib, "istivo" (bir necha ma'noda kelgan bo'lib,) mukammallik ma'noda ham keladi. Bu haqda Alloh taolo: "**Qachonki u (Muso) voyaga etib, mukammal bo'lганда**", [Tafsiri Hilol 2018:Qasos 14] deb marhamat qilgan. Istelo ya'ni egallah ma'nosida ham keladi. Bunga bir shoirning so'zi misol:

Haqiqatdan, Bishr (Bishr ibn Marvon ibn Hakam Umaviy) Iroqni qilichsiz va qon to'kishsiz egalladi.

Istiqror ya'ni qaror topish ma'nosida ham keladi. Bu haqda Alloh taolo: “**Va** (kema) **Judiy** (tog'iga) **joylashdi**”, [Tafsiri Hilol 2018:Hud 44] deb marhamat qilgan. (Shuncha ma'nosи bor bo'lgan) ehtimollik narsa hujjat bo'la olmaydi. Chunki, har bir mujtahidning bir ma'noni isboti uchun bo'lgan ta'vili uning rayi (ilmiy qarash) bilan bo'ladi, bu esa boshqasiga qarshi hujjat bo'lmaydi. Bu erdagи “istivo” so'zining Allohga munosib va tarjih qilingan (aksar ulamolar to'g'riroq deb bilgan) ma'nosи, egallahdir. Chunki, Alloh taolo shu bilan O'zini madh etmoqda. Istivo so'zi madh uchun bo'lishi uchun egallah ma'nosida bo'lishi kerak, zero arsh maxluqotlarning eng buyugi, bu esa Allohnинг mulkiga kirmagan narsa qolmagan deganidir. (Agar arshga o'rashish ma'nosи bo'lsa, arsh Allohdan ham buyuk, degan qarash kelib chiqadi).

Bobartiyning uslubini ko'ryapmizki, qisqa va lo'ndalikni ma'qul ko'rgan va qarshi tarafni fikrini keltirib, unga birma-bir raddiyalar bergan. Shu bilan birga Bayoziy kabi turli olimlarning emas, balki o'zining fikrini keltirgan.

Bayoziy esa matnda bunga raddiya bor yoki matnda buni isbot qilish bor deb, keltirish va turli ulamolar xoh ular ash'ariy bo'lsin yoki boshqasi bo'lsin, keltirib ketavergan. Ora-orada noto'g'ri qarashlarga turli ulamolarning fikri bilan raddiyalar ham bergan. Ularning aksari ash'ariy ta'limotida bo'lgan.

Yana shuni aytish kerakki, Bayoziy bu mavzuda aksar o'rinda moturidiy ta'limotidan boshqasini keltirgan bo'lsa, bu mavzudan boshqa o'rinnarda, moturidiy ta'limotiga oid qarashlarni ko'proq keltirgan.

Bu mavzudan xulosa shuki, “Arsh” masalasi ehtimollik mavzu, uni aniq shu deyishda Allohnинг Azmatiga mos ehtimolni keltirish kerak. Agar Unga munosib bo'lmanini keltirilsa, Allohga niqsonni nisbat berib qo'yiladi. Bu esa xatarli ish hisoblanadi.

## **FOIDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:**

### **Tarjima kitoblar:**

1. Aydarbek Tulepov. Islom va aqidaparast oqimlar. Toshkent: “Movarounnahr”, -536 b. 2016.

2. Abdulqodir Abdur Rahim. E'tiqod durdonalari. Toshkent: Sharq nashriyoti, -B. 115. 2016.

### **Arabcha kitoblar:**

1. Akmaliddin Bobartiy. Sharhi vasiyati Imam Abi Hanifa. Dor al-fath. - 155 b. 2009.

2. Alloma Abdulhay lakhnaviy. Hoshiyat al-Hidaya sharhi bidayatul-mubtadiy. Istanbul: Maktabatul-bushro. 8 jildlik, j-4, - 416 b. 2018.

3. Al-Qoziy Muhammad Komiyy Adrnaviy Hanafiy. Mahaammul-fuqahou al-hanafiyyatu al-anjaab. Istanbul: Markazi harfi lil-bahsi va tatavvur ul-ilmiy. - 436 b. 2022.
4. Bayoziy. Isharotul-marom. Lubnon: Dor al-kutubul-ilmiya. Ahmad Farid Mazidiy tahqiqi. -B. 156,57,58,59. 2007.
5. Xatib Bag'dodiy. Tarixi Bag'dod. Bag'dod: Dor al-g'arbil-islamiy. 21 juzlik, J-5. -B. 379-383. 2001.
6. Muhammad Zuhayliy. Izz ibn Abdussalom. Damashq: Dor al-qalam.- B. 39. 1992.
7. Hofiz Ibn Hajar. Raf'ul-asror. Dor al-fath.
8. Tojuddin Subkiy. Tabqotu Shafe'iya. J-6. -B. 2,3.
9. Faxriddin Roziy. Tafsirul-kabir. Bayrut: Dor al-fikr. 32 jildlik, j-12. -B. 46. 1981.
10. Isomuddin Sayyid Anas Mustafo. Manahijut-ta'lif va tatbiqotuha fil-falsafatu al-islamiya: al-mashsjaiya, ilmul – kalom, ilmut-tasavvuf.

Enternit saytlari:

<https://dx.doi.org/10.1007/978-1-4020-9729-4>.

1. <https://id.worldcat.org/fast/16>.
2. <https://libris.kb.se/auth/1912>.
3. Makatabatu shomila.